

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA KITOBXONLIKNI OMMALASHTIRISH

OXU magistranti: Xo'jayeva Nigora

Ilmiy rahbar: Olimov Temur Xasanovich

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini faol kitobxonlikka o'rgatish, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tadbirlar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilari hayotida o'qish faoliyatining ahamiyati kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda "o'qish savodxonligi" darslarini samarali tashkil etishning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *kitob, kitobxonlik, o'qish savodxonligi, o'yin faoliyati, o'qish faoliyati, mehnat faoliyati.*

Аннотация: *В статье рассматриваются такие вопросы, как обучение учащихся начальной школы активному чтению, масштабные мероприятия, проводимые в этой связи в нашей стране, а также значение чтения в жизни учащихся начальной школы. В статье также обсуждается важность эффективной организации уроков «читательской грамотности» для повышения интереса учащихся начальной школы к чтению произведений искусства.*

Ключевые слова: *книга, чтение, читательская грамотность, игровая деятельность, читательская деятельность, трудовая деятельность.*

Abstract: *This article discusses the issues of teaching primary school students to actively read, the large-scale activities being carried out in our country in this regard, the importance of reading activities in the lives of primary school students. It also discusses the importance of effectively organizing "reading literacy" classes in increasing the interest of primary school students in reading works of art.*

Keywords: *book, reading, reading literacy, play activities, reading activities, work activities.*

KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-madaniy jarayonning indikatori sifatida belgilangan. Kitob o'qishning reproduktiv ko'rsatkichlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar mustaqil kompaniyalar, davlat va ijtimoiy tashkilotlar, tadqiqot markazlari (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Osiyo axborot-tahlil jamg'armasi, Allensbach instituti, AQShning San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts - NEA) faol ishtirok etmoqda. Xususan, olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarning "badiiy asarlarni o'qish" darajalarini keskin pasayib ketishning oldini olish umummilliy muammo ekanligiga alohida urg'u berilgan. Jahon ta'lim tizimidagi islohotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ushbu

jarayonning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish, metodik ta'minotini zamon talablari asosida takomillashtirish, shaxs sifatlarini tarkib toptirish hamda o'quvchilarning ma'naviy-intellektual darajasi rivojlanishiga doir texnologiyalarni qo'llash zaruriyati keltirib chiqarmoqda. Xalqaro ta'lim amaliyotida jamiyat taraqqiyotining va inson kapitalini shakllantirishning muhim vositasi sifatida kitobxonlik madaniyatini o'quvchilarda shakllantirishga muhim e'tibor qaratiladi. Rivojlangan davlatlarining ta'lim tizimida "reader response" (kitobxon javobi), "student – centered" (o'quvchi faol) kabi yondashuvlar amaliyotga joriy etilgan bo'lib, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali ularning o'quv faolligini oshirish, mustaqil mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish natijasida mantiqiy tafakkur va perspektiv qobiliyatlarini rivojlantirish kabi strategik maqsadlar belgilanmoqda. Mamlakatimizda yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlash, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongi va tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltirish, o'z vatani va xalqiga bo'lgan muhabbati va sadoqat tuyg'usini shakllantirish, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish, ularda kitobxonlik darajasini oshirish usullarini tashkiliy-metodik jihatdan tizimlashtirish va didaktik ta'minotini takomillashtirish, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-intellektual darajasi rivojlanishida kitobxonlikning o'rni va ahamiyati nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida kitobxonlik madaniyati o'quvchiga o'qiyotgan asarini to'laqonli tushunish, asar g'oyasini anglash va baholay olish, o'zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo'llarini ko'rsatish bilan bir qatorda, quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- o'quvchilarga badiiy jihatdan yuksak, ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni o'rganish, ijtimoiy so'rovlar orqali aniqlash, chop etilayotgan badiiy, ma'rifiy, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlar va ularning elektron shakldagi nusxalarini shakllantirish;

- o'quvchilar ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlari fondlarini shakllantirishda o'quv adabiyotlari bilan bir qatorda badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni ko'paytirish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yozuvchi-shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob

sotuvchilar hamda kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida tanlovlar ("Yilning eng yaxshi kitobi", "Eng yaxshi kitobxon oila", "Yilning eng yaxshi bolalar kitobi", "Yilning eng yaxshi audio kitobi", "Yilning eng yaxshi elektron kitobi" kabi) o'tkazish tizimini takomillashtirish.

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish;

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabilar.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi mezonlarni tavsiya qilamiz:

Birinchidan, o'quvchilar qanday kitoblarni o'qishga qiziqshi va tafakkuri qay darajada ekanligini aniqlash;

Ikkinchidan, o'quvchining tafakkur qilish faoliyatlarini anglashi, erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish;

Uchinchidan, o'z fikrini ravon, erkin ifodalay olish ko'nikmasini shakllantirish;

To'rtinchidan, o'qilgan kitoblari mazmunini so'zlab berish va kundalik tutishga o'rgatish;

Beshinchidan, matnni ifodali o'qiy olish malakasini rivojlantirish;

Oltinchidan, o'quvchilar ongiga sharm-u hayo, odob-andisha, ota-onalarga hurmat, kattalarga izzat-extirom, kichiklarga shafqat kabi olijanob fazilatlarni shakllantirish;

yettinchidan, buyuk ajdodlarimiz merosiga ulkan g'urur tuyg'ularini singdirish;

Sakkizinchidan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlar va urf-odatlarga beqiyos hurmat va asrab avaylash ko'nikmalarini shakllantirish;

To'qqizinchidan, insonlarga xos samimiylik, vatanparvarlik, mexr-oqibat, imon-e'tiqod, fidoyilik kabi fazilatlarni muhim ekanligini anglatish;

O'ninchidan, o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash, taxlil etish malakasini shakllantirish;

O'n birinchidan ertak, masal, rivoyat, dostonlarda aks etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, hamjihatlik, mardlik tushunchalari aks ettirilgan qahramonlar qiyofasi orqali ezgu tushunchalarni singdirish;

O'n ikkinchidan milliy ertak qahramonlari orqali halollik, rostgo'ylik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, o'z so'zining ustidan chiqish inson ko'rki ekanligini anglatish;

O'n uchinchidan, shaxs ma'naviy kamolotida milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini davlatimiz ramzlari misolida tushuntirish;

O'n to'rtinchidan, asardagi voqealarni o'quvchi hayotidagi voqeliklar bilan solishtirib, kundalik faoliyatida odoblilik, rostgo'ylik, vijdonlilik fazilatlarni shakllantirish;

O'n beshinchidan, bolalar shoirlari she'rlari orqali tabiat, atrofimizdagi olam, go'zallikni his qilish kabi badiiy estetik did shakllantirish;

O'n oltinchidan, xar bir oilada shaxsiy kutubxonaning tashkil topishiga erishish kabilar.

Ma'lumki, kitob o'qishning izchil olib borilishi o'qish madaniyatini shakllantiradi. O'qish madaniyatining takomillashib borishi shaxsning kitobxon darajasini rivojlanganligini belgilab

beradi. Tadqiqotda G.Filatova va N.F.Stanislavchiklarning ilmiy tadqiqot ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini shakllantirish muammosi o'rganilgan hamda A.Mavrulov, A.Yu.Xanxatovalar tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetentligi va madaniyatiga ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, olimlarimiz Q.Husanboeva, S.Qambarova, Y.Umarova, E.Yuldoshev, S.Chinievalarning tadqiqotlarida bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini o'stirish, vatanparvarlik g'oyasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida kutubxonalardan maqsadli foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari keltirilgan. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish texnikasining rivojlanganligi kitobxonlik madaniyatining dastlabki bosqichidir. Bu bir tomondan o'quvchining kitob o'qishga qiziqishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan o'qituvchining o'quvchi layoqatini hisobga olgan holda individual yondashishga bog'liqdir. Umuman, tadqiqotlarimiz natijalari o'quv-tarbiya jarayonining sifatini ta'minlash, takomillashtirish hamda o'quvchilarda kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirish hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- o'quvchi shaxsining ma'naviy-intellektual rivojlanishda kitobxonlik madaniyatini shakllanish darajasini munosib baholanilishiga erishish;
- o'quvchilarning ma'naviy-intellektual dunyoqarashini shakllantirishning zamonaviy ilg'or metod va yondashuvlarni qo'llash;
- o'qituvchilarning ma'naviy-intellektual dunyoqarashini shakllantirish darajalarini haqqoniy, demokratiya va insonparvarlik tamoyillari asosida nazorat qilishlari kabilardan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tizimli tashkil qilinishini hamda muayyan maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kitobxonlikni izchil va tizimli yo'lga qo'yishning ilmiy-nazariy asoslari, muammoning amaldagi mavjud holatini o'rganish natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala ekanligini asoslash imkonini berdi. Zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-intellektual darajasini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilimlarni o'zlashtirishning tayanch nuqtasi sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida "Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalari"ga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. 2019-yil. 19-mart. <https://kun.uz>.
2. Azimova I va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 2-qism. -T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. -T.: Sharq, 2001.
4. Muminova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Monografiya. Namangan-2019.
5. Utanbayeva, D. A. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili ta'limi jarayonida mustaqil fikrlashga o'rgatish. (pp. 236-239).